



EKSTREMIZM TUSHUNCHASINING HUQUQIY TAHLILI

Ravshanov Dostonjon Ravshan o'g'li

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20230499>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-may 2026 yil

Ma'qullandi: 14-may 2026 yil

Nashr qilindi: 16-may 2026 yil

KEYWORDS

ekstremizm, diniy, jamiyat, javobgarlik, keskin, dalillar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ekstremizm tushunchasiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari har tomonlama tahlil qilinib, ularning yondashuvlari solishtirma-siyosiy tahlil asosida o'rganilgan. Muallif mavjud ilmiy fikrlar bilan asosli ilmiy bahsga kirishgan holda, ekstremizm tushunchasining mazmunini yanada aniqlash va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqqan. Shuningdek, maqolada ekstremizm tushunchasi milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali yoritilib, qonunchilikdagi mavjud yondashuvlarni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida yangi keskinlik o'choqlari paydo bo'lmoqda, millatlar va konfessiyalar o'rtasida qarama-qarshiliklar kuchaymoqda, radikalizm va ekstremizm xavfi tobora ortib bormoqda. Mana shunday tahlikali sharoitda biz barqarorlik va xavfsizligimizga ziyon yetkazadigan har qanday tahdid va xatarlarga keskin qarshi turishimiz shart"¹ deb aytgan edilar. Haqiqatdan ham, ushbu xalqaro muammoga qarshi kurashish, uning nazariy-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish jamiyat va davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Tarixdan ma'lumki, ekstremizm hodisasi turli davlatlarda turli shakllarda kuzatilgan. Bu tushuncha hayotda turli shakllarda namoyon bo'ladi va shu tariqa zamonaviy voqelikning eng xavfli hamda keng qamrovli siyosiy-ijtimoiy va huquqiy muammolaridan biriga aylanadi.

Ekstremizmga qarshi kurashishning ma'muriy-huquqiy mexanizmlarini ko'rib chiqishdan oldin avval "ekstremizm" so'zini tahlil etish, uning tushunchasini mohiyatini to'liq anglab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Zamonaviy akademik tadqiqotlarda "ekstremizm" tushunchasini nazariy tahlil qilish nafaqat huquq fanining, balki uni amaliyotda qo'llashning asosiy va ayni paytda noaniq muammolaridan biridir.

Ekstremizm tushunchasining mazmunini to'g'ri va to'liq anglash uchun uning lug'aviy ma'nosini bilib olish maqsadga muvofiq. O'zbek tilining izohli lug'atida ekstremizm (*lot. extremus - eng oxirgi; o'taketgan, ashaddiy; keskin*) bu siyosatda va mafkurada ashaddiy,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qoraqalpog'iston Respublikasida sodir bo'lgan ommaviy tartibbuzarliklar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqi. <https://kun.uz/news/2022/07/06/>. Murojaat qilingan sana: 16.12.2025-yil)

favqulodda usullar bilan yo'l tutishga, keskin choralar ko'rishga tarafdorlik deb ta'rif berilgan².

Yuridik adabiyotlarda ekstremizm tushunchasi masalasida turlicha yondashuvlarni ko'rish mumkin. Xususan, K.A.Shermuhammedov va J.A.Karimovlar "ekstremizm (lotincha – "aql bovar qilmas darajada", "haddan oshish") – jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlar"ni anglatishini³, A.V.Korolchuk "ekstremizm turli subyektlar (subyektlar guruhlar) xatti-harakatining shakli sifatida nafaqat alohida davlatning, balki davlatlar birlashmalarining ham milliy xavfsizligi - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlariga tahdid solishi"⁴ni, Z.Islomov, Sh.Ikramovlar esa "ekstremizm – jamiyat uchun nosog'lom, uning taraqqiyotiga zid bo'lgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchi»dir deb ta'rif berishgan"⁵.

Ekstremizm hodisasini davlatlarning tuzilish shakli, huquqiy va siyosiy tizimidan qat'i nazar, barcha tarixiy davrlarda ko'plab mamlakatlarda kuzatish mumkin.

Umuman olganda, ekstremizmning tabiati (mohiyati) odatda muayyan umume'tirof etilgan g'oyalar, tamoyillar, qadriyatlar va boshqalarni o'zgartirish yoki yo'q qilish bilan bog'liq bo'ladi. Bu tushuncha xilma-xil shakllarda hayotga tatbiq etilmoqda va shu tariqa hozirgi voqelikning eng xavfli va keng ko'lamli siyosiy-ijtimoiy va huquqiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Ekstremizm, ayniqsa uning radikal ko'rinishi, siyosiy, iqtisodiy, millatlararo va boshqa huquqiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, milliy xavfsizlikka, ommaviy-huquqiy tuzilmalar, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga tahdid soladi.

XXI asrda "ekstremizm" atamasi birinchi marta me'yoriy hujjatda 2001-yil 15-iyundagi "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi (SCO Convension on Combating Terrorism, Separatism and Extremism)⁶da rasman mustahkamlandi. Uni ratifikatsiya qilgan tomonlar bu hodisani siyosiy, ijtimoiy, irqiy, milliy va diniy ziddiyatlarni zo'ravonlik va boshqa konstitutsiyaga zid usullar bilan hal etishga qaratilgan mafkura va amaliyot sifatida tushunishda yakdillik bildirdilar. Shu bilan birga, ushbu ta'rif milliy qonunchiligi nafaqat mazmun, balki tuzilish jihatidan ham sezilarli farq qiladigan suveren davlatlar tomonidan ko'rib chiqilayotgan ijtimoiy hodisani kelishilgan va teng huquqli talqin qilish natijasi ekanligini tushunish lozim. Bu ta'rifni xalqaro va milliy ekstremizmga qarshi kurash huquqini rivojlantirish uchun asos sifatida qabul qilish mumkin, biroq ushbu normaning bevosita huquqni qo'llash imkoniyatlari cheklangan. Ushbu me'yoriy huquqiy hujjat

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 29-6. URL:https://ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati. Мурожаат қилинган сана: 16.12.2025-йил.

³ Шермухаммедов К.А., Каримов Ж.А. Экстремизм ва терроризмга қарши курашишнинг маънавий-маърифий асослари // Ўқув қўлланма. – Т. 2018. – Б.7-8.

⁴ Корольчук А.В. Понятие и сущность экстремистской деятельности // Вестник Московского университета МВД России. 2022. № 6. С. 148-151.

⁵ З.Исломов, Ш.Икромов. Экстремизм ва терроризм – тараққиёт душмани // Ўқув-амалий қўлланма. –Т. 2015. – Б. 65.

⁶ "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Shanxay konvensiyasi. <https://www.google.com>. Мурожаат қилинган сана: 15.01.2025-йил

mamlakatimiz tomonidan 2001-yil 30-avgust kuni ratifikatsiya qilindi⁷,

Oradan ma'lum vaqt o'tganidan so'ng, 2018-yil 30-iyulda O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"⁸gi qonuni qabul qilindi. Ayni ushbu qonunda ekstremizm tahdidlarining asosiy manbalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyulda 2021 - 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"⁹gi PF-6255-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning 1-ilovasi bilan 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi¹⁰ tasdiqlandi. Mazkur strategiyada O'zbekiston Respublikasining ekstremizmga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Bugungi kunda mazkur turdagi, huquqbuzarliklarning salkam 96 foizi Internet butunjahon axborot tarmog'i orqali (ya'ni 53 foizi "Telegram", 23 foizi "Instagram", 14 foizi "Odnoklassniki", 5 foizi "Facebook", 3 foizi "Youtube" va 2 foizi boshqa ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda) sodir etilayotgan [Tadqiqot ishiga ilova]

Kuch, usul va vositalar sifatida ommaviy axborot vositalari, jumladan, Internet jahon axborot tarmog'ida hamda turli ko'rinishdagi (kitob, broshyura va elektron dasturlar) materiallarni misol sifatida keltirish mumkin. Aytish kerakki, Markaziy Osiyo hududidagi ekstremistik tashkilotlar yollashda o'tgan asrning 90 yillarida asosan varaqalar va diniy adabiyotlardan foydalangan bo'lsa, hozirda asosan Internet jahon axborot tarmog'idan keng foydalanib kelmoqda. Birgina "Islom davlati" terroristik tashkiloti 80 foizdan ortiq ma'lumotlarini Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatib kelmoqda. Yevropadan tashkilot safiga qo'shilganlarning 84 foizi Internet jahon axborot tarmog'i orqali yollangan, 47 foizi onlayn tarzda materiallarni ko'rib kelgan, 41 foizi onlayn tarzda terrorchilik tashkilotiga qasamyod qilgan, 19 foizi teraktlar tayyorlash uchun yo'riqnoma olgan¹¹.

AQShlik ekspert Dj.M.Berger ISHIDning Twitter ijtimoiy tarmog'idan foydalanish mexanizmlarini tadqiq etgan. Uning fikriga ko'ra, ISHID twitterda o'zining yetakchilari, dala qo'mondonlarining rasmiy sahifalarini yaratib, ular orqali targ'ibot va yollovni amalga oshirmoqda¹².

Statistik ma'lumotlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining

⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi shanxay konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi 274-II-son qarori. <https://lex.uz/docs/-2109377>. Murojaat qilingan sana: 15.12.2025-yil

⁸ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/3841957>. Murojaat qilingan sana: 30.11.2025-yil.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyulda 2021 – 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 30.11.2025-yil.

¹⁰ 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 15.01.2025-yil

¹¹ Методы работы вербовщиков ИГИЛ. http://pac.cfuv.ru/wp-content/uploads/2016/09/metody_verbovki.pdf. Murojaat qilingan sana: 12.12.2025-yil.

¹² J.M. Berger and Jonathon Morgan. The ISIS Twitter Census. Washington, D.C.. The Brookings Institution. 2015. Murojaat qilingan sana: 12.12.2025-yil.

davlat tuzilmalari ekstremistik yo'nalishdagi huquqbuzarliklar sonining ko'payishi munosabati bilan ekstremistik faoliyatga qarshi kurashishning mavjud usul va uslublarini doimiy ravishda takomillashtirishga majbur bo'lmoqda. Tadqiqot ishi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 89 foizi mamlakatimizda ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish muammosini bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri deb hisoblashini ma'lum qilishgan. [Tadqiqot ishiga ilova]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyulda 2021 - 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-sonli Farmoni¹³da Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish ustuvor vazifalardan biri ekanligi qayd etilgan bo'lib, bu vazifalarni hal etish davlat va jamoat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlangan.

2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi¹⁴da ekstremistik va terroristik tashkilotlarning Internet jahon axborot tarmog'i orqali yollash harakatlarida kuzatilayotgan faollik sababli, ularni zararsizlantirish bo'yicha quyidagi qo'shimcha choralar ko'rilishi zarurligi qayd etilgan:

Internet jahon axborot tarmog'ida ekstremizm va terrorizm g'oyalarini tarqatuvchilarni, shuningdek, respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish niyatida bo'lgan shaxslar va guruhlarini o'z vaqtida aniqlash;

respublika aholisiga xos bo'lgan bag'rikenglik va diniy an'analarni o'zida mujassam qilgan ilmiy asoslangan mafkuraga tayanib Internet tarmog'ida ekstremizm va terrorizm g'oyalariga qarshi tashviqot va targ'ibot ishlarini tashkil etish;

buzg'unchi kontentni aniqlash va yo'q qilish maqsadida Internet jahon axborot tarmog'ini tahlil qilish;

Internet jahon axborot tarmog'ida ekstremizm va terrorizm g'oyalariga axborot orqali qarshi kurashish sohasida malakali kadrlar tayyorlash;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning maxsus bo'linmalarini zarur bo'lgan ilg'or dasturiy mahsulotlar hamda texnika bilan ta'minlash;

Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadida foydalanishga qarshi kurashish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam ravishda takomillashtirib borish.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkin, O'zbekiston Respublikasi dunyoning boshqa yetakchi davlatlari qatori nafaqat ekstremizm tarqalishi xavfini tan oladi, balki jamiyat va davlat hayotining barcha mavjud sohalarida ushbu hodisaning rivojlanishiga qarshi kurashishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilaydi.

Ekstremizm tushunchasini aniqlash bo'yicha ko'plab qarashlar mavjud. Ba'zi

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi 2021 – 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6255-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 30.11.2025-yil.

¹⁴ 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 15.01.2025-yil

tadqiqotchilar bu atamani faoliyat sifatida ta'riflash to'g'riroq deb hisoblasa, boshqalari ekstremizmni keng ma'noda tushunishni va uni hodisa toifasi bilan bog'lashni taklif qiladi. Bu holatda ekstremizmni siyosiy, ijtimoiy yoki huquqiy hodisa sifatida ko'rib chiquvchi keng ko'lamdagi fikrlar mavjudligini qayd etish lozim.

Yuridik adabiyotlarda hozirga qadar mazkur atamani talqin qilish bo'yicha yagona nuqtai nazar shakllanmagan. Ushbu muammoning sabablarini aniqlar ekan, olimlar ekstremizm nihoyatda murakkab va ko'p qirrali hodisa ekanligini ta'kidlaydilar, bu esa turli xil qarashlarni o'rganish va tahlil qilishni taqozo etadi. Qayd etilgan holat tadqiqotchilarga "ekstremizm" tushunchasining eng muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va ular asosida yagona ta'rifni shakllantirish bo'yicha umumiy xulosaga kelish imkonini bermaydi.

"Ilmiy tadqiqotlar natijalari va qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, ekstremizm huquqiy kategoriya sifatida ko'pincha umume'tirof etilgan me'yorlardan sezilarli darajada (tubdan) chetga chiquvchi faoliyat bilan bog'liq. Ayni paytda, bir qator xorijiy mamlakatlar (Angliya, AQSH, Fransiya) yuridik adabiyotlari va qonunchiligida ushbu atama ko'proq qarama-qarshi kuchlarning o'ta keskin to'qnashuvini anglatuvchi hodisa sifatida talqin qilinadi"¹⁵.

Shuni ta'kidlash joizki, ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlarda nafaqat "ekstremizm" atamasining yagona ichki mazmuni to'g'risida yakuniy nuqtai nazar shakllantirilmagan, balki ko'rib chiqilayotgan siyosiy-huquqiy kategoriyaning mohiyatini yagona tarzda tushunish ham belgilanmagan.

Ekstremizm tushunchasini yanada aniqroq yoritish uchun turli fanlarda, jumladan, huquqshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik va falsafada shakllangan yondashuvlarga murojaat qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

I.V.Vexov "ekstremizmni ijtimoiy tuzumni to'liq yoki qisman inkor etish yoxud shunday harakatlarga da'vat qilishdan iborat bo'lgan, ongli va mafkuraviy jihatdan asoslangan og'ma xatti-harakatlar"¹⁶ sifatida baholaydi.

M.X.Rustambayev O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismiga bergan sharhida "ekstremizm - eng keskin qarashlarga, borliqqa ishonch hissi (odatda, siyosatda), o'zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o'zi bilishiga ishonch hissi so'nggi choralarga - zo'ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Bunda muayyan shaxs ham, boshqa dinga mansub ijtimoiy guruh ham yoki shu dinning o'z vakillari tomonidan rad etilayotgan mazhabga mansub vakillar ham ta'sir ko'rsatish obyekti sifatida tanlab olinishi mumkin"¹⁷ deb ta'rif bergan.

Mazkur tarifga qisman qo'shilgan holda, shuni ta'kidlashimiz lozimki ekstremizm har doim ham eng keskin qarashlar so'nggida zo'ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turuvchi diniy ekstremizmga olib kelmaydi. Shuningdek, ekstremizmning ko'plab shakllari mavjud bo'lib, faqatgina diniy ekstremizmga emas boshqa shakldagi ekstremizmga ham zo'ravonlik holatlari uchraydi.

X.Sh.Kilyasxanovning ko'plab faylasuflar asarlarini sinchkovlik bilan o'rganishga

¹⁵ Корнилов Т.А. Возникновение, развитие и понятие экстремизма // Российский следователь. 2011. № 17. С. 23-25.

¹⁶ Вехов И.В. Экстремизм как объект социологического исследования // Известия РПГУ им. А.И. Герцена. 2009. № 3. С. 284-290.

¹⁷ Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. maxsus qism/ Toshkent: "Adolat", 2016. 242-b.

asoslangan fikricha, “ekstremizm radikal xususiyatga ega faoliyat bo‘lib, uning negizida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy modelini va uning huquqiy asoslarini mutlaqo inkor etish, ularni har qanday vosita va usullar, jumladan zo‘ravonlik yo‘li bilan yo‘q qilishga intilish yotadi”¹⁸.

V.P.Galitskiy nuqtai nazaridan, “ekstremizm - bu mafkura, siyosat, din va millatchilikning radikal ko‘rinishi; atrofdagi voqelikni keskin idrok etish; qonunga xilof xatti-harakat hisoblanadi”¹⁹.

R.Almeyer va F.Qosimovlar ekstremizmga “konstitutsiyaviy tuzum asoslarini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, davlatning hududiy yaxlitligi va suverenitetini buzish, zo‘rlik yoki zo‘rlik ishlatishga da‘vat qilish bilan bog‘liq holda irqiy, milliy, etnik yoki diniy adovat va ijtimoiy nizo qo‘zg‘atish, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o‘ta keskin chora-tadbirlar, fikr va qarashlar ma‘nosini anglatadi”²⁰.

Nazarimizda berilgan tariflar ichida mazkur tarif nisbatan ekstremizmni mazmun-mohiyatini yoritishda xizmat qilganligi bois mazkur tarifga qo‘shilamiz.

Jamiyat hayotining siyosiy sohasida doimo “ziddiyatli” kuchlar kurashi uchun joy mavjud bo‘lib, uning sababi jamiyatning aksariyati tomonidan qabul qilingan va qo‘llab-quvvatlanadigan muayyan siyosiy tartibdir. Bu tartibni ekstremistik harakatlar orqali buzishga intilayotgan jamiyatning ozchilik qismi bundan mustasno. Siyosatshunoslar ekstremizm hodisasini radikalizm g‘oyalari va u bilan bog‘liq barcha narsalarni tarqatuvchi siyosiy yo‘nalishlarni hisobga olgan holda o‘rganish zarurligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning ayrim subyektlari tomonidan o‘zlarini o‘rab turgan barcha narsalarga keskin baho berishga asoslangan radikal faoliyatni ekstremizm deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar:

- 1) Mirziyoyev Sh.M. Qoraqalpog‘iston Respublikasida sodir bo‘lgan ommaviy tartibbuzarliklar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqi. <https://kun.uz/news/2022/07/06/>. Murojaat qilingan sana: 16.12.2025-yil
- 2) Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 29-б. URL.https://ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati. Мурожаат қилинган сана: 16.12.2025-йил.
- 3) Шермухаммедов К.А., Каримов Ж.А. Экстремизм ва терроризмга қарши курашишнинг маънавий-маърифий асослари // Ўқув қўлланма. – Т. 2018. – Б.7-8.
- 4) Корольчук А.В. Понятие и сущность экстремистской деятельности // Вестник Московского университета МВД России. 2022. № 6. С. 148-151.
- 5) З.Исломов, Ш.Икрамов. Экстремизм ва терроризм – тараққиёт душмани // Ўқув-амалий қўлланма. –Т. 2015. – Б. 65.
- 6) “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Shanxay konvensiyasi. <https://www.google.com>. Murojaat qilingan sana: 15.01.2025-yil

¹⁸ Киясханов Х.Ш. Социально-философский анализ феномена политического экстремизма в условиях реформирования российского общества : дис. ... канд. филос. наук. Тверь, 2006. С. 8.

¹⁹ Галицкий В. П. Государственная идеология в борьбе с экстремизмом и терроризмом // Обозреватель. 2010. № 12 (251). С. 13-24.

²⁰ Алмеев Р.В., Касимов Ф.Х. В плену иллюзии: религиозный экстремизм — угроза миру и стабильности. <https://search.worldcat.org/title/124062368>. Мурожаат қилинган вақт: 14.12.2025-йил

- 8) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi shanxay konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida"gi 274-II-son qarori. <https://lex.uz/docs/-2109377>. Murojaat qilingan sana: 15.12.2025-yil
- 9) O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/3841957>. Murojaat qilingan sana: 30.11.2025-yil.
- 10) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyulda 2021 – 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6255-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 30.11.2025-yil.
- 11) 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 15.01.2025-yil
- 12) Методы работы вербовщиков ИГИЛ. http://pac.cfuv.ru/wp-content/uploads/2016/09/metody_verbovki.pdf. Murojaat qilingan sana: 12.12.2025-yil.
- 13) J.M. Berger and Jonathon Morgan. The ISIS Twitter Census. Washington, D.C.. The Brookings Institution. 2015. Murojaat qilingan sana: 12.12.2025-yil.
- 14) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-iyuldagi 2021 – 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6255-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 30.11.2025-yil.
- 16) 2021 — 2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi. <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>. Murojaat qilingan sana: 15.01.2025-yil
- 17) Корнилов Т.А. Возникновение, развитие и понятие экстремизма // Российский следователь. 2011. № 17. С. 23-25.
- 18) Вехов И.В. Экстремизм как объект социологического исследования // Известия РПГУ им. А.И. Герцена. 2009. № 3. С. 284-290.
- 19) Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. maxsus qism/ Toshkent: "Adolat", 2016. 242-b.
- 20) Килясханов Х.Ш. Социально-философский анализ феномена политического экстремизма в условиях реформирования российского общества : дис. ... канд. филос. наук. Тверь, 2006. С. 8.
- 21) Галицкий В. П. Государственная идеология в борьбе с экстремизмом и терроризмом // Обозреватель. 2010. № 12 (251). С. 13-24.
- 22) Алмеев Р.В., Касимов Ф.Х. В плену иллюзии: религиозный экстремизм — угроза миру и стабильности. <https://search.worldcat.org/title/124062368>. Murojaat qilingan vaqt: 14.12.2025-yil